

ISSN (E): 2181-4570

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING MA'NAVIY TARBIYA HAQIDAGI TA'LIMOTLARI

Saidova Parvina Mirzo qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o‘qituvchisi
parimirzaevnadtpi@gmail.com

Murodullayeva Zaytuna Abdulloyevna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi
hasanabdullaev2016@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada 1-4-sinf o‘quvchilarida ma’naviy tarbiya indikatorlarini shakllantirish mazmuni, boshlang’ich sinf o‘qituvchilarda ham ma’naviy tarbiya indikatorlarini shakllantirish haqida so’z yuritilgan.

Kalit so’zlar: tarbiya, ta’lim, ma’naviy tarbiya, indikator, ma’naviy-axloqiy ong, “Uzluksiz ma’naviy tarbiya” Konsepsiysi, yoshlar tarbiyasi, ma’naviy-axloqiy fazilat (kompetensiyalar), ma’naviy-axloqiy sfatlarni shakllantirish.

Kirish. Jahon ta’lim tizimida yoshlarni kasbiy ijtimoiylashtirish, ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish, ijtimoiy faolligi va tashabbuskorligini tarbiyalash metodikasini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. AQSH, Rossiya, Germaniya, Fransiya, Xitoy, Koreya kabi rivojlangan mamlakatlarda talaba-yoshlarning tafakkurini o‘sirish, qobiliyatlarini erta aniqlash, ma’naviy-axloqiy tarbiyalash mexanizmlari samaradorligini oshirish metodikasini takomillashtirishda modulli o‘qitish, “blended learning” (aralash o‘qitish), mahorat darslari, vebinarlar tashkil etilib kelinmoqda. O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda. Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda oila, maktabgacha ta’lim, umumiy ta’lim, o‘rtta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko‘tarishni taqozo etadi¹.

¹O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-sun Qarori 1-ilovasi. // Qonun hujjalari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020 y., 09/20/1059/4265-sun

Asosiy qism. Bugungi kunda ma’naviyat masalasi dolzarb muammolardan biri sifatida talqin qilinib, yoshlarning ma’nan yetuk, barkamol shaxs sifatida kamol topishida ta’lim-tarbiya jarayonini uzluksiz tarzda o’qitish talab etilmoqda. Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev ma’naviyatga shunday ta’rif berganlar: “Yangi O’zbekistonni barpo etish ustunlaridan biri – kuchli ma’naviyatdir. Agar kimdir, ma’naviyat masalasi – bu faqat idora va Ma’naviyat markazi yoki tegishkli vazirlik va idoralarning ishi, deb o’ylasa xato qiladi. Bularning barchasi oldimizda turgan eng asosiy, eng muhim vazifalardan biridir”².

Tarixga nazar tashlasak, bizning ota-bobolarimiz ming yillar oldin o’zlarining tarixiy yodgorlik manbalarida, buyuk mutafakkirlarimiz esa o’zlarining ilmiy asarlarida ta’lim-tarbiya haqidagi pedagogik ta’limotlariga duch kelamiz. Ushbu ta’limotlarda ma’naviy kamolot va tarbiya haqida alohida so‘z yuritilgan. Dastavval, xalqimizning ilk yozma yodgorligi “Avesto”ga murojaat qilganimizda, inson odob-axloqi, ma’naviyati quyidagi “uchlik”da aks ettirilgan³ (1-rasm):

INSON MA’NAVIYATI

GUMATA (YAXSHI FIKR) – yaqin kishilarga mehribonlik qilish, muhtojlik va xavf-xatar ostida qolganda yordam berishga shaylik, kishilar baxt saodati uchun faol kurashishga doim tayyor turish, hamma bilan ahil va totuv yashash va h.k.

GUGTA (YAXSHI SO’Z)
– o’z va’dasiga rioya qilish, so’zning ustidan chiqish, savdo-sotiq ishlarida halol bo’lishga, qarzini o’z vaqtida to’lash, o’g’rilik va talonchilik qilmaslik, buzuqlikdan o’zini tiyish va h.k.

GVARSHTA (YAXSHI ISH) – insonning o’z xatti-harakatida yaxshi fikr va yaxshi so’zlarda ilgari surilgan barcha ijobiyo’l-yo’riqlarga og’ishmay amal qilish va h.k

1-rasm. “Avesto”ning ma’naviy-axloqiy uchligi.

Qarangki, oradan ming yillar o’tgan bo’lsada, hali hanuz bu ta’limotning mohiyati bugungi davr talabida ham o’z ahamiyatini yuqotmagan. “Avesto”dagi uchlikning haqiqiy manbalariga yondashiladigan bo’lsa, ular qadimgi zamon

² O’zbekiston Respublikasining Prezidenti SH.M.Mirziyoyev ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalari bo’yicha videoselektordagi nutqi. 2021 yil 19 yanvar

³ S.Otamurodov, S.Husanov, J.Ramatov. “Ma’naviyat asoslar”. T.: Abdulla Qodiriy nomidagi nashriyot. 2002 y. 87 b.

kishilarining axloqiy tasavvurlariga batamom muvofiq bo‘lib tushadi. Ushbu ma’naviy-axloqiy uchlik g’oyasi eng qadimgi davrlardan boshlab kishilik jamiyati taraqqiyotining keyingi bosqichlarida yaratilgan barcha ma’rifiy asarlar mazmunining shakllanishiga asos bo‘lgan. Zero, unda insonning inson sifatida ma’naviy va moddiy jihatdan kamol topishi uchun zarur bo‘lgan muayyan talablar o‘z ifodasini topib, hayot kodeksi sifatida nafaqat Sharq, balki G’arb xalqlarining ham muhim ma’naviy merosi bo‘lib qoldi. Asarda ifoda etilayotgan masalalarning ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab olganligi Zardusht g’oyalaringin nazariy va amaliy ahamiyatini oshirib, uning qimmati bugungi kunda ham yuqori bo‘lishiga olib kelgan. Zardushtiylik ta’limotining axloqiy yo‘riqlariga binoan, inson tomonidan o‘z burchini his etishning eng birinchi belgisi **ma’naviy poklik** sanalgan.

Islom manbalarida islomiy g’oyalari odamlarni yaxshilikka da’vat etadi, ularni yomonlikdan qaytaradi. Insonparvarlikni targ’ib etib, razolatni qoralaydi, odob-axloq, ruhiy-ma’naviy poklik, mehnat qilish hamda yer yuzini obod va go‘zal etishga undaydi. U adolat, tenglik, tinchlik, erkni targ’ib etadi. “Qur’oni Karim”ning inson kamolotga erishishidagi ahamiyati, uning insonga va butun borliqqa nisbatan munosabati mazmunidan ham bilsak bo‘ladi. Sura va oyatlar vositasida zohir etilgan musulmon olami, xususan, islom diniga e’tiqod qiluvchi xalqlarning madaniyati, ma’naviyati va ma’rifatiga oid qarashlar axloqiy me’yorlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, buyuk muhaddis Imom Buxoriy axloqning yaxshi bo‘lishi, taomning pokizaligi, rostlik va omonatga xiyonat qilmaslik – mana shu to‘rt xislatni Allah taolo senga bergen bo‘lsin, dunyoviy ishlardan chetda qolgan bo‘lsang ham, zarari yo‘qdir, deb yozadi. Shuningdek, ilm olish fazilatlari haqida shunday aytildi: “Ilmga amal va rioya qiluvchi bo‘linglar, uni faqat hikoya qiluvchi bo‘lmanglar”⁴, - deyiladi (637-hadis). Hadislarda ilmning kishilarni fahm-farosatli, o‘tkir zehnli, zukko hamda xotirani kuchli qilishdagi ahamiyati ham ta’kidlanadi va “Ilmu hunarni Xitoydan bo‘lsa ham borib o‘rganinglar”, - deya da’vat etiladi.

Hadislarda insonning kamolotga erishishi uchun talab etiladigan insoniy fazilatlar ifoda etilgan bo‘lib, bu fazilatlar sirasiga quyidagilar kiradi, bularning

⁴ Axloq-odobga oid hadis namunalari Hamidulla Hikmatullayev, Abdulaziz Mansurov TOSHKENT “FAN” nashriyoti 1990 28-bet

ISSN (E): 2181-4570

barchasi Qur'oni Karimda qayd etilgan ko'rsatmalarga asoslanilgan va komil insonni shakllantirishda, asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi (1-jadval):

Hadisi shariflarda keltirilgan insoniy fazilat (kompetensiya)lar

HADISI SHARIFLARDAGI INSONIY FAZILAT (KOMPETENSIYA)LAR			
1	o'zgalarga mehr-oqibat ko'rsatish	10	Vatanga muhabbat
2	saxiylik	11	halollik
3	ochiq ko'ngillilik	12	do'stlik
4	ota-onalik, kattalar va qarindoshlarga nisbatan muruvvatli bo'lish	13	mehnat va kasb-hunarni ulug'lash
5	ularga g'amxo'rlik qilish	14	oliyjanoblik
6	rahm-shafqatlilik	15	kamtarlik
7	yaxshilik sari intihshi kerakligi	16	insonning o'zini yomon illatlardan tiyishi
8	vijdonlilik	17	rostgo'ylik
9	poklik,		

1-jadval. Hadisi shariflarda keltirilgan insoniy fazilat (kompetensiya)lar.

Birinchi va ikkinchi Renessans vakillari deya e'tirof etiladigan, Sharq uyg'onish davrining yetuk namoyandalari hisoblangan qomusiy mutafakkirlarimiz o'zlarining boy ilmiy merosida ta'lim-tarbiya berishning yo'l-yo'riqlari, ma'naviy tarbiyani shakllantirish omillari haqida qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirganlar. Ularning ta'limotlarida ma'naviy tarbiya mezonlari, belgilari xususida fikr yurutilgan. Ushbu ma'lumotlarni umumlashtirgan holatda quyidagi jadval orqali ma'naviy tarbiya mezonlarini ko'rsatilgan (2-jadval):

Mutaffakkirlar e'tirof etgan ma'naviy tarbiya indikatorlari

MUTAFFAKKIRLAR E'TIROF ETGAN MA'NAVIY TARBIYA INDIKATORLARI							
Abu Nasr Farobi	ma'rifatlik, kamtarlik	donolik, bilimdonlik	muloh azali bo'lish	vijdonlik, tarbiyalik	ma'naviy yuksaklikka intilish	ko'pchilik manfaatini	haqiqat, adolatlilik

						yuqoriq o'yish	
Abu Ali ibn Sino	hurmat va ehtirom, qat'iyatlit ik	sofdilli k, saxiylik , adolat	axloqi y kamol ot, ma'rifa t	qanoat, chidaml ilik, jasurlik	mo'tadi llik, uyatcha nlik, intilish	donolik , kamtarl ik, iyaraklik	ehtiyotkor lik, sevgi- muhabbat
Abu Rayhon Beruniy	axloqiyli k, poklik, kamtarlik	to'g'rili k , adolat	go'zall ik va nafosat	oliyjan oblik, saxovat	do'stlik, hamkorl ik	ilm- ma'rifat lilik	mehnat va hunar egallah
Kaykov us	suxandon lik	do'stlik	andish alilik	javonm ardlik	kamtarli k	diqqat bilan tinglash	xushmuo malalilik
Muha mmad Qoshg' ariy	xushmuo malalik	odoblili k	bilimli lik	hunar o'rganis h	bilimlili k	kamtarl ik	mehmond os'tlik
Jalolid din Davoni y	ziyraklik	fahmlili k	shijoat	donolik	iffat, adolat	diqqatli lik	zehn ravshanlig i
Alisher Navoiy	muhabba t	vafodor lik	go'zall ikka intilish	axloqiy jasorat	oliyjano blik	axloqiy lik	komillikk a intilish
Abdull a Avloniy	Vatanni sevmoq, haqshuno slik,	matonat ,	intizo m, diyonat, oliyhim matlik	iffat, hayo, itoat, adolat, afv	riyoza, qanoat- sabr	vijdon, haqqoni yat	idrok, zako, ibrat, xayrixohli k
Xoja Saman	Vatanni sevmoq,	jasorat, sabr-	dono odamla	podsho h	o'ylab gapisirish, ,	mardlik	irodasi mustahka

dar Termizi y	uning muhofaza si uchun jon fido qilmoq	toqat,adolat, Yumshoq tabiatlilik,	r suhbatibilan aqlni boyitis h	marham atidan mag'rur bo'lmaslik	dushman so'ziga ishonmaslik	ma'naviy poklik, halollik	mlik, do'stlik, yaxshi do'star uchun jon fido etish
Jalolid din Rumiy	iymon-e'tiqod, iroda, sabr-matonat, or-nomuslilik	bag'rik englik, olivjano blik, adolatlilik, saxovatiliblik	qalb pokligi , aql bilan ish tutish, mehr-vafo	go'zal axloq, o'z- o'zini anglash, o'zaro hurmat	vijdon uyg'oqli gi, irodanin g mustahk amligi	Intizom lilik, sadoqat lilik, odoblilik, nazokat ,	Samimiylilik, hurmat ko'rsatish, rostgo'ylik,
Abdura hmon Jomiy	javonmardlik, poklik,	tirishqo qlik	sadoqa tlilik, vafodorlik	itoatkor lik	mehribo nlilik	do'stlik	omonatdrorlilik mehnatsevarlik

2-jadval. Mutaffakkirlar e'tirof etgan ma'naviy tarbiya indikatorlari.

Bunda mutafakkir olimlarning pedagogik qarashlarida ma'naviy tarbiya mezonlarini ko'rishimiz mumkin. Ular ko'rsatib o'tgan bir necha ma'naviy-axloqiy fazilat(kompetensiya)lar bir-biriga o'xshaydi. Ba'zilarida yangi fazilatlarni ham uchratish mumkin. Bundan ko'rinish turubdiki, ma'naviy tarbiya mezonlari bir necha asrlar oldin ham insonlar tomonidan shu fazilatlar shakllanganligi bilan o'lchanadi. Bu esa bugungi kunga kelib ham o'z qiymatiga egaligini namoyon etadi. Insonlar tomonidan e'tirof etiladigan axloq kategoriyalari har bir jamiyat a'zosining ma'naviy yetukligi uchun qilinadigan sa'y-harakatlar ko'لامи bilan baholanadi. Hozirgi kunga qadar olib boriladigan islohotlar zamirida ham aynan komil shaxsni shakllantirish masalasi dolzarb ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Bu mezonlarni shakllantirish omillari orqali biz jamiyatimizga "husni xulq" – "ma'naviy yetuk" inson qiyofasini tarkib toptirib boramiz.

Jaloliddin Rumiy "Masnaviy ma'naviy" asari ta'lim-tarbiyaviy qiymatga ega bo'lgan ilmiy asar hisoblanadi. Mazkurasar orqali shaxsda iymon-e'tiqod, bag'rikenglik,

iroda, qalb pokligi, vijdon uyg‘oqligi, go‘zal axloq, o‘z-o‘zini anglash kabi sifatlarni qaror toptirish zarurligi allomaning ma’naviy merosidan ta’lim jarayonida foydalanishni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish hamda o‘qitishning takomillashtirish katta ahamiyat kasb etadi. Asarda keltirilgan ma’naviy tarbiya indikatorlari o‘quvchilarda singdirish o‘sib kelayotgan yosh avlodning ma’naviy qiyofasi yetuk bo‘lib ulg’ayishida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Xoja Samandar Termiziyning “Dastur ul-muluk” asarining asl mazmuni davlatni idora qilish va yoshlarni tarbiyalashda podshohlar uchun dasturdir. Asardagi rang-barang hikmatlar, jang, voqeа-hodisalar tasvirida hammadan oldin insonga xos bo‘lgan eng yaxshi ta’limiy-axloqiy xislatlar talqin etiladi. Muallif asardagi hikmatlar orqali inson ruhiyatidagi eng yaxshi sifatlar, xislatlarni ta’riflash bilan birga, har bir mamlakat podshohi, amiri, hokimi shunday sifatlar, xususiyatlarga ega bo‘lishi va ular davlatning poydevorini shu tarzda qurishi, mustahkamlanishi lozimligini qayta-qayta ta’kidlaydi. Shu sabab asarning agrchi podshohlarga ma’naviy atab yozilgan bo‘lsa ham, mamlakatning yoshlarni ma’naviy halol, pok, mustahkam, sabr-toqatli, Vatanga sodiq kishilar ruhida tarbiyalash xususidagi ahamiyati nihoyatda kattadir. **“Dastur ul-muluk”** asarida ma’naviy-axloqiy fazilatlar badiiy tasvir vositalari oraqli keltirib o‘tilgan: adolat, jasorat, yumshoq tabiatlilik va sabr-qanoat, mag’rur bo‘lmaslik, o‘ylab gapirish, yomon odatlardan saqlanish, muloqot, maslahatning foydasi, hasadning zarari, sabr-toqat natijasi, qarilarning yoshlarga nasihatlari haqida alohida ta’kidlab pand-u nasihatlar keltirilgan. Xoja o‘z qarashlarida mamlakatning manfaati, tinchligi uchun jon fido qilgan kishilarni “Jondan kechib, jon olib-jon berib jangga kirgan pahlavonlar”nigina jasur, dovyurak odamlar sirasiga qo‘shadi. O‘z mamlakati, xalqi ornomusi uchun kurash ketayotgan bir vaqtida yigit aslo xayolini bekorchi narsalarga band qilmasligi, faqat jang tashvishi, g’alabani o‘ylash zarurligini uqtiradi. Jasorat haqidagi shu kabi hikmatlari, orzu-istiklari 300 yildan buyon o‘z ahamiyatini yuqotgan emas. Bugungi kunda istiqlol yo‘lida borayotgan Vatanimiz yoshlarini vatanparvarlik, dovyuraklik, mardlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega⁵. Ushbu asarda keltirilgan ma’lumotlar orqali ularni ma’naviyatini yuksaltirish, fazilatli avlod qilib tarbiyalash maqsad qilib qo‘yilgan.

⁵ Xoja Samandar Termiziyy “Dastur ul-muluk” “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. Toshkent 2001. 52-55 betlar

XIX asrda yashab ijod etgan mutafakkir **Abdulla Avloniy**ning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida quyidagi fikrlarni keltirgan: “ilmi axloqning asosi tarbiya o‘ldug’indan shul xususda biroz so‘z so‘ylayurmiz. Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtidan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarini o‘rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o‘sturmakdur. Tarbiya qiluvchilar tabib kabidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgan kabi tarbiyani bolasning vujudidagi jahl maraziga “yaxshi xulq” degan davoni ichidan, “poklik” degan davoni ustidan berib, katta qilmog’i lozimdur”. **A.Avloniy tarbiyani to‘rt guruhga ajratib ko‘rsatadi:** 1. Tarbiyaning zamoni; 2. Badan tarbiyasi; 3.Fikr tarbiyasi; 4. Axloq tarbiyasi. Uning fikricha, “axloq tarbiyasi: insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland daraja beruvchi axloq tarbiyasidur. Biz avvalgi darsda tarbiya ila dars orasida farq bor, deduk, chunki dars oluvchi-biluvchi, tarbiya oluvchi-amal qiluvchi demakdur. Shuning uchun ham tarbiya qiluvchi muallimlarning o‘zлari ilmlariga omil bo‘lib, shogirdlarga ham bergen darslarini amal ila chaqishturub o‘rgatmklari lozimdur, bu ravishi ta’lim ila berilgan dars va ma’lumot shogirdlarning diliga tez ta’sir qilub, mulloyi boamal bo‘lurlar”⁶.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan asarlardan ko‘rinib turibdiki, o‘tmishda ham komil insonning o‘ziga xos axloq kodeksi ishlab chiqilgan bo‘lib, ular juda katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu asarlarda keltirilgan ijobiy axloqiy fazilatlar insonlarni ezgulikka chorlab, ularni mehr-u muhabbat, vafo va sadoqat ruhida tarbiyalab kelgan bo‘lsa, salbiy axloqiy xislatlar va ularning oqibatlari haqida gapirish orqali esa nomaqbul qabih ishlardan saqlanishga da’vat etib, ularning inson ekanliklarini bir lahma bo‘lsa-da esdan chiqarmaslikka chaqirganlar.

Ma’naviy-axloqiy tushunchalar, baholash va muhokama yuritish asosida ma’naviy-axloqiy e’tiqod shakllanadi va nihoyat inson xatti-harakati va xulqi aniqlanadi. Ma’naviy-axloqiy e’tiqodga ega inson axloqiy me’yorlar, talablami ongli bajaradi va ularga hurmat bildiradi. Lekin ma’naviy-axloqiy me’yorlar haqida bilimga ega bo‘lish va uni tushunish hali e’tiqodni faoliyatga aylantiradi degan gap emas, ma’naviy-axloqiy bilimlar qachon hayotiy tajribalarda qo‘llanilib, o‘quvchilar tomonidan ularning faoliyatida yorqin namoyon bo‘lgandagina, rivojlangan deyish mumkin.

⁶ A.Avloniy “Turkiy guliston yoki axloq” T.: YOSHLAR NASHRIYOT UYI. 2019. 13 bet.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-sodan Qarori 1-ilovasi. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020 y., 09/20/1059/4265-sodan
2. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti SH.M.Mirziyoyev ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalari bo'yicha videoselektordagi nutqi. 2021 yil 19 yanvar
3. S.Otamurodov, S.Husanov, J.Ramatov. "Ma'naviyat asoslari". T.: Abdulla Qodiriy nomidagi nashriyot. 2002 y. 87 b.
4. Axloq-odobga oid hadis namunalari Hamidulla Hikmatullayev, Abdulaziz Mansurov TOSHKENT "FAN" nashriyoti 1990 28-bet
5. Xoja Samandar Termiziy "Dastur ul-muluk" "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. Toshkent 2001. 52-55 betlar
6. A.Avloniy "Turkiy guliston yoki axloq" T.: YOSHLAR NASHRIYOT UYI. 2019. 13 bet.
7. Akbar T. Opportunities to Form Spiritual Competence in Students of the 10-11th Class //Web of Scholars: Multidimensional Research Journal. – 2022. – T. 1. – №. 8. – C. 160-167.
8. Rustamovich T. A. Islom Ta'limotlarda Shaxs Ma'naviyati Masalalari //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2021. – T. 1. – №. 5. – C. 186-190.
9. Baxriddin o'g'li, F. O., Abdunabiyevich, F. A., & Norbo'Tayevna, N. D. (2022). IMPROVING VOCATIONAL EDUCATION IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS BY DEVELOPING PRIMARY MECHANISMS OF NATIONAL CRAFTS. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(02), 577-580.
10. Abdurazakov, F. A., & Meliev, S. K. (2022). Interactive Methods Used In The Formation Of Creative Activity (On The Example Of Primary School Students). *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(1), 257-262.
11. Abdurazakov, F. A., & ugli Odinaboboev, F. B. (2022). Pedagogical importance of using module educational Technologies in the system of continuous education on the basis of modern approaches. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(1), 173-180.

12. Abdunabievich, F. A., Ugli, F. O. B., & Norbutaevna, N. D. (2022). TYPES OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES THAT CORRESPOND TO THE SPECIFICS OF MORAL AND AESTHETIC EDUCATION AND TEACHING OF STUDENTS.

13. Абдуразақов, Ф. (2022, October). ЎҚУВЧИЛАРГА АХЛОҚИЙ-ЭСТЕТИК ТАРБИЯ БЕРИШДА НОТИҚЛИК МАДАНИЯТИНИ ШАКЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. In *E Conference Zone* (pp. 110-115).

14. Абдуразақов, Ф. (2022). ЎҚУВ МАШІУЛОТЛАРИДА УҚУВЧИЛАРНИНГ НОТИҚЛИК МАДАНИЯТИНИ ШАКЛАНТИРИШ. *Conferencea*, 78-84.

15. Чарыев, И., & Абдураззоков, Ф. (2021). СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ОБРАЗОВАНИИ В УЗБЕКИСТАНЕ. *Энigma*, (32), 86-93.

16. Abdurazakov, F. (2022). SPEAKING SKILLS FORMATION MECHANISMS. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(11), 91-100.

17. Xudayqulov, X., & Abdurazaqov, F. (2022). ЁШЛАР ОРАСИДА НУТҚ МАДАНИЯТИ РИВОЖЛАНТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ. *Science and innovation*, 1(B7), 815-821.

18. Абдуразақов, Ф. А. (2023). ОҒЗАКИ ВА ЁЗМА НУТҚҚА ҚҮЙИЛАДИГАН ТАЛАБЛАР. *Journal of Universal Science Research*, 1(1), 36-42.

19. Чарыев, И. Профессор кафедры Педагогики ТерГУ. Абдураззоков Фазлiddин, Магистрант 2-курса ТерГУ. СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ОБРАЗОВАНИИ В УЗБЕКИСТАНЕ. *Научно-практический журнал «Энigma» Выпуск № 32 (Апрель 2021)*, 86.

20. Абдуразаков, Ф. (2022). У[^] УВ МАШЕУЛОТЛАРИДА У[^] УВЧИЛАРНИНГ НОТЩЛИК МАДАНИЯТИНИ ШАКЛАНТИРИШ.

21. Abdurazaqov Fazliddin Abdunabihevich. (2023). OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARIGA TARBIYA BERISHDA PEDAGOG NUTQI. *Journal of Universal Science Research*, 1(4), 16–23. Retrieved from <http://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/396>

ISSN (E): 2181-4570

22. Baxriddin o‘g‘li, F. O., Abdunabiyevich, F. A., & Norbo‘Tayevna, N. D. (2022). IMPROVING VOCATIONAL EDUCATION IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS BY DEVELOPING PRIMARY MECHANISMS OF NATIONAL CRAFTS. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(02), 577-580.

23. Абдуразаков, Ф. (2022). О‘кувчиларга ахлоқија-естетик тарбија беришда нотиqliк маданийатини шакллантириш меҳанизмларини тақомиллаштириш. *Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире*, 1(3), 16-22.

24. Odinaboboyev Fazliddin Bahriiddin o‘g‘li. (2023). MILLIY HUNARMANDCHILIKNING MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KASBIY TARBIYANI TAKOMILLASHTIRISH (1-4-sinflar misolida). *Journal of Universal Science Research*, 1(4), 507–514. Retrieved from <http://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/544>

25. Xudayqulov, X., & Odinaboboev, F. (2022). ПЕДАГОГИК МОДУЛЛИ ЎҚИТИШДА ИННОВАЦИОН ТАРАҚҚИЁТНИНГ УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАР. *Science and innovation*, 1(B7), 960-967.

26. Чарыев, И. Профессор кафедры Педагогики ТерГУ. Однабобоев Фазлиддин, Магистрант 2-курса ТерГУ. СОВРЕМЕННЫЕ ПРИНЦИПЫ И МЕТОДЫ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ. *Научно-практический журнал «Энigma» Выпуск № 32 (Апрель 2021).*, 93.

27. Rustamovich, T. R. A. (2021). Islom Ta’limotlarda Shaxs Ma’naviyati Masalalari. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(5), 186-190.

28. TA Rustamovich (2021) Issues of Personal Spirituality in Islamic Teaching International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD) 1(6), 886-889

29. Akbar, T. (2022). Opportunities to Form Spiritual Competence in Students of the 10-11th Class. *Web of Scholars: Multidimensional Research Journal*, 1(8), 160-167.

30. Akbar To‘raqulov Rustam o‘g‘li, & Hakimova Nigina Ma‘mur qizi. (2023). Milliy о‘кув дастурининг hayotimizdagи о‘рни. *Journal of Universal Science Research*, 1(5), 88–93. Retrieved from <http://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/616>

ISSN (E): 2181-4570

31. Akbar To'raqulov Rustam o'g'li, & Jumanazarova Durdona Abduvohidovna. (2023). Oliy ta'linda korrupsiyaga qarshi kurashish. Journal of Universal Science Research, 1(5), 101–109. Retrieved from <http://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/619>
32. Akbar To'raqulov Rustam o'g'li, & Xurramova Aziza Abdurasul qizi. (2023). XALQARO BAHOLASH DASTURI ASOSIDA O'QUVCHILARNING BILIMINI BAHOLASH METODOLIGIYASI. Journal of Universal Science Research, 1(5), 94–100. Retrieved from <http://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/618>
33. Abdunabiyyevich, A. F. (2023). OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARIGA TARBIYA BERISHDA PEDAGOG NUTQI. Journal of Universal Science Research, 1(4), 16-23.
34. Eshqorayev, S. S., Ro'zimurodov, B. I., & Choriyeva, M. S. (2022). YOSHLARNI ILM-FAN VA INNOVATSIYALARGA QIZIQTIRISHNING NOAN'ANAVIY USULI. Eurasian Journal of Academic Research, 2(6), 308-310.
35. Choriyeva, M. S. qizi, & Eshqorayev, S. S. o'g'li. (2022). MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIK O'ZBEK XALQINING YUKSAK QADRIYATIDIR. INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING, 1(3), 46–51. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/iclt/article/view/2879>